

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

УО‘Т.634.11(075)

Intensiv olmazorda yoshartiruvchi va me’yorlashtiruvchi kesishni qisqartirilgan novdalarning miqdori, vazni va strukturasiga ta’siri

BuxDU Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasи professorи

Yunusov Rustam

BuxDU Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Sharipova Ozodaxon Olimovna, Murodova Ozoda Umedovna

Annatatsiya: Maqlolada intensiv olmazorlarda yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesishni qisqartirilgan navlarni miqdori, vazni va strukturasiga ta’siri o‘rganilgan. Rayonlashtirilgan 3 xil olma daraxtlarini kesish usuli va darajalari yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi 3-4 yillik kesish jarayonida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Intensiv olma bog‘lari, 3 xil rayonlashtirilgan nav, susaytiruvchi payvandtag, navlarni miqdori, vazni va strukturasi, meyorlashtiruvchi va yoshartiruvchi kesish usuli.

Аннотация: в статье рассмотрено влияние омолаживающей и нормализующей обрезки на количество, массу и структуру редуцированных сортов в интенсивных условиях. Определены способы и объемы обрезки 3-х видов районированных яблонь в ходе омолаживающей и нормализующей 3-4-летней обрезки.

ключевые слова: интенсивные яблоневые сады, 3 типа районированных сортов, аттенуационная прививка, количество, масса и структура сортов, стандартизирующий и омолаживающий метод обрезки.

Kirish

Mevachilik qishloq xo‘jaligining eng muhim va o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, urug‘li mevali bog‘lar, jumladan, intensiv olma va nokzorlar Respublikamizda oxirgi yillarda keskin ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2006 yildagi PF-3709 raqamli “Meva-sabzavotchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi va “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O‘zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo‘llari va choralar” asarida ko‘rsatilgan tavsiyalar asosida mamlakatimizda 2011 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy va

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

ishlab chiqarish faoliyati doiralarini takomillashtirish va barqaror rivojlantirish dasturi belgilab olindi.

Intensiv mevachilik sohasida meva ishlab chiqarishni keskin oshirish, sifatini tubdan yaxshilash hamda tannarxini kamaytirish kabilar asosan yangi serhosil intensiv bog‘lar barpo qilish va mavjud bog‘lardan muttasil mo‘l va sifatli mevalari hosilini yetishtirish rejalashtirilgan[1,2].

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jadallashtirilgan (intensiv) mevali bog‘lar barpo etilmoqda, bu bog‘larda mevali daraxtlarga shakl berish va navlarning biologik xususiyatlarini inobatga olib, kesish usullari o‘rganilgan bo‘lsada, nav va uning biologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, daraxtlarning yoshiga qarab, hosil beruvchi 3- 4 yillik shoxlarni yoshartirish sikli bo‘yicha kesish usullari va darajalari O‘zbekiston sharoitida ilmiy asosda atroflicha o‘rganilmagan[3,4].

Bugungi kunda intensiv bog‘lardan yuqori sifatli hosil yetishtirish bilan birgalikda, yaratilgan bog‘larni tezroq, ya’ni, ekilganidan keyin 2-3 yilda hosilga kirishini ta’minalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Intensiv bog‘larda payvandtagi sekin o‘suvchi, tupi kichik yuqori sifatli hosil beruvchi navlar tanlanib, ularga yuqori, agrotexnik tadbirlar majmuiy qo’llanilganda, 25-30 t/ga sifatli hosil yetishtirish imkoniyati yaratiladi[5].

O‘zbekistonda va chet mamlakatlarda olma daraxtlarining ortiqcha shox-shabbalarini kesish usullari va darajalarining o‘sish, rivojlanish va hosildorlikka ta’siri bo‘yicha bir guruh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borilgan va turli xil tuproq-iqlim sharoitida navning biologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish asosida ilmiy ma'lumotlar olishgan va muayyan sharoitga mos ilmiy tavsiyalar berishgan. Lekin, shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu boradagi bajarilgan tadqiqotlar mevali daraxt navlarning biologik xususiyatlari, shox-shabbalarining meva berishi, ularning yoshartirish sikllarini to‘liq ochib berish imkoniyatini bermaydi.

Mevali daraxt novdalarini 3-4 yil davomida siklik ravishda yangilab turish uchun qo’llaniladigan yoshartiruvchi, me’yorlashtiruvchi kesish usullari va shoxlarning holatiga qarab, qisqartirish darajalarini aniqlash hamda tanasiga muayyan shakl berish tadbiri -hosildorlikni oshirish va sifatini yaxshilashdagi eng muhim agrotexnik omil bo‘lib, ushbu tadbir O‘zbekistonning muayyan tuproq-iqlim sharoitida ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Shu jumladan, Buxoro viloyatida ham mavjud mevali bog‘larda olma yetishtirish jarayonida daraxtlarning biologik va navning xususiyatlariga, novdalarining meva berish yili va kesishning

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi usullari va qirqish darajalariga alohida e'tibor berishni talab etadi[6].

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tanlangan tadqiqot yo'nalishi o'ta dolzarb va aktual hisoblanib, mevali daraxtlarning hosildorligini oshirishda va sifatini yaxshilashda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tajribaning maqsadi, uslubi va sharoiti Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida Respublikamizda rayonlashtirilgan olma navlarini hosil beruvchi novdalarining siklik ravishda yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usullarini hamda daraxtning holatiga qarab, o'suvchi shoxlarni qisqartirishning eng samarali darajalarini ilmiy asosda aniqlash orqali intensiv olmazorlarda har yili mo'l, yuqori sifatli hosil yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- Mevali daraxtlarning o'suvchi shoxlarini qirqishda uning qirqish usuli va darajasiga bog'liqligini o'rganish, asosiy fitometrik ko'rsatkichlarining o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'sirini aniqlash;
- Daraxt tanasining yorug'lik bilan qanday ta'minlanganligi va fotosintez mahsuldarligini aniqlash;
- Daraxt tanasida generativ organlarning shakllanishi va ularning joylashishi, hosil va uning sifatiga ta'sirini o'rganish;

Agrokimyoviy tadqiqotlar natijalari bo'yicha yaylovli, eski va yangi sug'oriladigan maydonlarda chirindining miqdori juda kam. Tuproqning haydalma qatlamida chirindi miqdori 0.8-1.4% azot 0,06-0,12% fosforni. yalpi miqdori 0,11-0,18%, almashinuvchan kaliy miqdori 1,5-3,0% ni tashkil qiladi.

"Amin Hayot bog'i" fermer xo'jaligining tuprog'i allyuvial – qadimdan sug'oriladigan, kuchsiz sho'rangan tuproqdan iborat bo'lib, suv sathining yuza joylashishi bilan (2.3-2.5 m) farqlanadi, mexanik tarkibi bo'yicha – o'rtacha soztuproqli hisoblanadi.

Intensiv mevali bog'larda kesishning usul va darajalariga to'g'ri rioya qilib, undan oqilona foydalanganda, daraxtlarning o'sish, rivojlanishi, ichki va tashqi sharoitlari uchun qulay muhit yaratilib, generativ organlari(kurtaklar)ning har yili ko'p miqdorda tugishiga imkon yaratiladi, bu esa har yili yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydi. Bunday bir xil fonda konturlar bo'yicha har yili kesishning to'g'ri va aniq qoidalariga rioya qilib, chegaralangan qirqish usulini qo'llash orqali

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

shoxlarning egilishi yo‘qolib, daraxt tanasining ichki qismidagi keraksiz shox-shabbalar olib tashlanadi. Natijada, daraxtdagi mavjud shox-shabbalar yorug‘lik, havo, oziqa, suv va boshqa moddalardan samarali foydalanib, yosh novdalarning har yilgi o‘sishi o‘rtacha 40-60smni tashkil qiladi va o‘rtacha hosildorlik 200-250 s/gani tashkil etadi.

Tajriba uslubiyoti: Tajriba o‘tkazilgan yillarda o‘rganilgan navlar bo‘yicha umumqabul qilingan uslubiy qo‘llanmalardan hamda olma daraxtini fitometrik ko‘rsatkichlari, yorug‘lik va fotosintez mahsuldarligi, hosildorlik va meva sifat ko‘rsatkichlarini VNIIS (1982) yilda ishlab chiqarilgan uslubiyotidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba 2021-2023 yillar davomida Buxoro tumanidagi “Hayot Amin bog‘i” fermer xo‘jaligida o‘tkazildi. Mevali daraxtlar bog‘ga 6x4 m tartibda o‘tkazilgan.

Daraxt tanasining ustki qismida joylashgan novdalariga kesishning ta’siri uning kesish darajasi va usuliga, nav xususiyatlariga, yashash muhitiga hamda agrotexnik parvarishlash darajalariga bevosita bog‘liq. Mevachilik amaliyotidan ma'lumki, faqat ma'yoriy darajada har yili yuqori sifatli o‘suvchi va hosil beruvchi novdalar bilan ta'minlaydigan kesish usuli qo‘llanilgan daraxtlar uzoq vaqt davomida o‘z unumdorligini saqlab qolish qobiliyatiga egadirlar. O‘sish qobiliyatini yo‘qotgan daraxtlarda ularga xos bo‘lgan davriy hosil berish hodisalari bilan birga, odatdagagi hosilli yillardan keyin qishga nsbatan chidamliligi pasayishi kuzatiladi.

Daraxtlarning qarish jarayoni avval o‘suvchi shoxlarda, keyin esa yarim skeletli va skeletli yog‘ochlarning tugashi bilan boshlanadi. Daraxtlarning vegetativ va generativ organlari faoliyati o‘rtasidagi nisbatlarning tartibga solishi va boshqarishi agrotexnik omillarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

2021-2023 yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlarda navlar va variantlar bo‘yicha hosil bergen shoxlarni o‘rindosh sifatida 3-4 yillik sikl asosida yoshartiruvchi va meyorlashtiruvchi kesish usullarini o‘tkazish natijasida, shoxlarning soni, massasi va tuzilishi kesish darajasiga bog‘lik ravishda ko‘payganli aniqlandi.

1-jadval

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

**Kesish jaryonida qisqartirilgan novdalar miqdori, vazni va strukturasi
(o‘rtacha 2021-2023 yillar uchun)**

Hosil berib bo‘lgan o‘suvchi shoxlarda yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldirilgan shoxlarda kurtaklari soni (dona)	Kesilgan shoxlarni o‘sish yili			Kesilgan shox-shabba massasi, kg	Kesilgan hosil kurtaklari soni, dona
		Bir yillik	Ikki yillik	Uch yillik		

"Golden Delishes" olma navi

Nazorat	qisqartirilmaydi	3	2	1	15	23
3- yillik	4-8	88	49	19	4,9	371
siklik	8-12	81	43	16	4,1	309
almashish	12-16	76	39	13	3,3	289
bo‘yicha	қискартирилмайди	31	21	7	2,7	135
yoshartiruvchi						
hi kesish usuli						
4- yillik	4-8	61	17	8	3,8	289
siklik	8-12	53	13	7	3,3	213
almashish	12-16	45	11	5	2,6	198
bo‘yicha	qisqartirilmaydi	21	10	2	1,9	77
yoshartiruvchi						
hi kesish usuli						

"Renet Simirenko" olma navi

Nazorat	qisqartirilmaydi	1,1	4	2	1,9	77
3- yillik	4-8	99		23	5,3	350
siklik	8-12	91	58	20	4,7	289
almashish	12-16	83	51	15	4,0	235
bo‘yicha	qisqartirilmaydi	45	44	9	3,1	111
yoshartiruvchi						
hi kesish						

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

usuli						
4- yillik	4-8	72		17	3,9	288
siklik	8-12	66		15	3,2	244
almashish	12-16	59	45	11	2,5	177
bo‘yicha	qisqartirilmaydi	31	39	5	2,2	77
yoshartiruvch			27			
hi kesish			23			
usuli						
"Pervents Samarkanda" olma navi						
Nazorat	qisqartirilmaydi	3	2	2	1,6	27
3- yillik	4-8	85	48	17	4,7	354
siklik	8-12	79	42	13	4,0	291
almashish	12-16	71	35	10	3,2	230
bo‘yicha	qisqartirilmaydi	23	18	6	2,4	136
yoshartiruvch						
hi kesish						
usuli						
4- yillik	4-8	63		13	3,5	261
siklik	8-12	56		9	2,8	202
almashish	12-16	50	36	7	2,0	144
bo‘yicha	qisqartirilmaydi	20	29	4	1,5	74
yoshartiruvch			27			
hi kesish			13			
usuli						
Hcp ₀₉₅						2,1
%						3,5

Hosil beruvchi shoxlarni 3-4 yillik siklik almashinuvchi kesish bo‘yicha yoshartirish va qoldirilgan hosil beruvchi novdalarni me'yoriy qisqartirish natijasida, ya’ni hosil berish uchun qoldirilgan novdalarni 4-8, 8-12 va 12-16ta hosil kurtagi qoldirib kesilgan variantlarda kesish darajasining kuchayishi bilan bu ko‘rsatkichlar oshganligi kuzatildi. Kesilgan shox-shabbalarning massasi kesish variantlarida Golden Delishes, Renet Simirenko va Pernes Samarkanda navlarida mutassil ravishda 1,2-3,4 kg, 0,-3,4 kg va 0,1-3,1 kg nazorat variantiga nisbatan oshganligi tadqiqot natijalarida aniqlangan.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

O'rganilayotgan Golden Delishes, Renet Simirenko va Pervenes Samarkanda navlarida 3-4yillik siklik almashinish bo'yicha hosil bergan shoxlarni yoshartirish va hosil berish uchun koldirilgan shoxlarni 4-8, 12-16 bo'g'inli kurtak qoldirib me'yoriy kesish darajalarida qirqilganda, hosil shoxlari nazorat variantiga nisbatan mutanosib ravishda: 54-378, 5-273 va 47-327 dona novdalar ko'proq kesildi.

Xulosa

Shunday qilib, tadqiqot natijalaridan shu narsa aniqlandiki, olma navlarining biologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tana yo'g'onligini kamaytirish va ko'paytirish qonuniylik tendensiyasi unda olib borilgan kesish usuli va darajalariga bog'lik ekanligini tadqiqot natijalari ko'rsatdi. Ya'ni, 3-4yillik siklik almashinish bo'yicha hosil berib bulgan novdalarda yoshartiruvchi kesish usulini qo'llab, hosil berish uchun koldirilgan shoxlarda me'yoriy kesish darajalari bo'yicha 4-8, 12-16 bo'g'inda kurtak qoldirib qirqilganda, olmaning naviga qarab, butab tashlangan novdalarning massasi va soni hosil novdalarining qisqartirish darajasi sayin ko'payganligini ko'rsatmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov A, Aripov A, Urug'li intensiv meva bog'lari - T., "Sharq" 2013, 224 bet.
2. Artikova X.T, Yunusov R, Salimova X.X, Klimaticheskiye usloviya I rostitevnost subtropicheskiy tyoploy I jarkoy pusini-Problemi rekultivatsii otxodov opita promishlennost I selskoxozaystva-215 212-215 betlar.
3. Artikova X.T, Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Intensiv olmazorlar hosildorligini va sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy resurs tejamkor innovatsion texnologiyalar bilan bog'liqligi" Namangan 2023 549-550 betlar.
4. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Buxoro viloyati sharoitida intensiv olmazorlarda o'sish va hosildorlikning nav payvandtag kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligiga bog'liqligi" "Durdona", Buxoro 2021, 102-bet.
5. Yunusov R, Ganiyeva F.A, To'rayeva A.A, Rostenii plodoshenie persika v orashalmax sadax v zavisnosti konstruksii kroni.J., "Stolisa nauka" M-2021, <http://www.scientific-capital.ru>
6. Yunusov R, Ganiyeva F.A, "Kesish usuli va darajalarining olma daraxti barg sathiga ta'siri. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi-4/2021. <http://journal.buxdu.uz>